

ABDURAZZOQ SAMARQANDIYNING “MATLAISA’DAYN VA MAJMAI BAHRAYN” ASARIDA ETNO-SIYOSIY MA’LUMOTLAR

Sharifjonov Jalilbek Anvarovich

O’zbekiston Davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro jurnalistik fakulteti 2 bosqich talabasi

Annotatsiya: Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asari XV asr Movarounnahr va Xuroson tarixini yoritishda muhim tarixiy asar sifatida nafaqat ijtimoy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlardan tashqari etnik jarayonlar tarixi ham batafsil aks etgani bilan bu davrdagi boshqa manbalardan ajralib turadi. Manbani bu davr boshqa manbalari bilan qiyosiy taqqoslab o’rganish mazkur davr tarixiy jarayonlarini yanada chuqurroq o’rganishimizga katta yordam beradi.

Kalit so’zlar: Abdurazzoq Samarqandiy, "Matlayi sa'dayin va majmai bahrayn", Movarounnahr, Xuroson, etno-siyosiy ma'lumotlar, Temuriylar.

Temuriylar davrining yirik tarixchilaridan Kamoliddin Abdurazzoq ibn Jaloliddin Is’hoq Samarqandiy (1413-1482) Hiroting badavlat xonadonlarining biriga mansub bo’lib, otasi Shohrux huzurida qozi, askar va imomlik lavozimida faoliyat yuritgan. 1463 yilga qadar Abdurazzoq Samarqandiy dastlab Shohrux, so’ngra Abulqosim Bobur va boshqa Temuriy shahzodalarining saroyida xizmat qilgan. Abdurazzoq Samarqandiy asosan boshqa davlat bilan olib boriladigan yozishmalar, shuningdek elchilik ishlari bilan shug’ullangan. Jumladan, u 1441 yilda Janubiy Hindostonga elchi qilib yuboriladi. Temuriylar davlatining Hindiston bilan munosabatini mustahkamlash va rivojlantirishda Abdurazzoq Samarqandiy katta rol o’ynaydi.

Abdurazzoq Samarqandiy yirik tarixshunos olim sifatida nom qoldiradi. U Eron va O’rta Osiyoning XIV-XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidan, shuningdek Temuriylar davlatining qo’shni davlatlar bilan iqtisodiy-siyosiy madaniy

aloqalari tarixidan bahs yurituvchi «Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn» (Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo’shilishi o’rni) deb ataluvchi asari bilan mashhur bo’lgan. Asar ikki qismdan iborat: 1) Elxon Abu Said (1317-1335) davridan to Amir Temurning vafoti va Xalil Sultonning Samarcand taxtiga o’tirishigacha bo’lgan davr (1304- 1405) tarixi; 2) Shohruxonning Temuriylar sultanatining oliv hukmdori deb e’lon qilinishidan (1405) to Temuriy Abu Said Mirzoning o’ldirilishigacha (1469) bo’lgan davr tarixi yozilgan. Asarda voqealar xronologik tartibda keltirilgan. Bu asardan foydalanishda katta qulayliklar tug’diradi. Abdurazzoq Samarcandiy va uning mazkur asari rus va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan o’rganilgan. Jumladan, B.A.Dori, V.F.Minorskiy, A.YU.Yakubovskiy, I.P.Petrushevskiy, B.G.Gafurov, A.U.O’rinboyevlar asarga yuqori baho berishgan.

“Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asarida Markaziy Osiyo minqasidagi entosiyosiy jarayonlar masalasi bu davr manbalariga qaraganda birmuncha mufassalroq yoritilgan. Xususan, bu davrda mavjud qabilalar va ularning yetakchilari, ular yashagan hududlar, qabilalarning mintaqqa ijtimoiy-siyosiy hayotida o’rni kabi masalalar o’rin olgan.

Manbada barlos qabilasi to’g’risida ham ko’plab ma’lumotlar keltirilgan. Amir Temur davrida barloslarning mavqeyi yuqori bo’lgani Amir Temur davri yoritilgan manbalarda keltiriladi. Bunda ayniqsa, Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylarning “Zafarnoma”lari alohida o’rin tutadi. Amir Temur vafotidan keyingi davrlardagi tarixiy voqealar Abdurazzoq Samarcandiyining asarida bat afsil yoritilgan, bunda muarrixning Temuriylar saroyiga yaqin lavozimlarda faoliyat yuritgani va elchilik vazifasini bajargani ham yaqindan yordam bergen.

Abdurazzoq Samarcandiy asarida bu davrda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan aholi haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, Shohruh Mirzoning amirlari – Shayx Luqmon barlos, amir Cherkas nomlari tilga olinadi. Manbada Mirzo Abu Bakrning amirlari – amir Husayn barlos, Umarshayx Mirzoning o’g’li mirzo Rustamning amir Said barlos, Mironshohning amiri To’kal barlos, Mirzo Iskandarning Hurqujoq qavchin degan amirlari bo’lgani haqida eslatiladi. Bu ma’lumotlardan Temuriylar davri harbiy-siyosiy hayotida barlos va qavchin etnoslari yetakchi mavqeiga ega bo’lganiniko’rishimiz mumkin.

Manbada qavchin etnosi haqida yana quyidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Amir Jahonmulk qauchin (qavchin) bo'lib, amir Milkatning o'g'li, amir Xoriyning amakivachchasi edi. Jahonmulk qavchin Shohruhning bolalik chog'laridan mulozimi bo'lgan. Amir Temur o'lgandan keyin Jahonmulk isyon ko'taradi.

Abdurazzoq Samarqandiyning asarida keltirilishicha, Mirzo Ulug'bek qo'shinining asosini qavchinlar tashkil qilgan. Mirzo Ulug'bekning Mo'g'ulistonga qilgan harbiy yurishlarida ham bir nechta harbiy amaldorlar qavchinlar ekani aytildi.

Manbada qavchirlarning ayrim amirlari Temuriylarga hiyonat qilgani to'g'risida ham soz yuritiladi. Domg'onning dorug'asi Saodat qavchin yovuz niyatli kishi bo'lib, 1447 yilda Abdullatifga qarshi chiqqn. Abdullatif Domg'oni olgach, Saodat qavchinni qavchinlar uchun omon qoldirganini yozadi Abdurazzoq Samarqandiy.

Manbada barloslar etnosi to'g'risida ham muhim ma'lumotlar o'rin olgan. Temuriylar mansub bo'lgan barlos qabilasi va uning mintqa ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni xususida manbada quyidagi ma'lumotlar keltirilgan. Barloslar Temuriy shahzodalar bilan iliq munosabatda bo'lgan. Faqatgina Abdullatif Mirzo hokimiyatni qo'lga olgandan keyin barlos amirlarining katta qismi uninghokimiyatini tan olishni istamaydi. Natijada, hukmdor bilan barloslar o'rtasida munosabatlar keskinlashib ketadi. Natijada, Abdullatif bir guruh barlos va tarxon amirlarini qatl etadi. Sababi ular Sultonshoh barlos va uning o'g'li amir Jaloliddin Muhammad barlos Abdullatif yoniga kelayotgan paytda ularni o'g'ir yaralaydi.

Abdurazzoq Samarqandiy asarida eslatilgan yana bir etnos arlot qabilasi hisoblanadi. Arlotlar Amir Temur davridan boshlab mintqa ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rinni egallaydi. Xususan, Amir Temurning opasining eri amir Muayyad arlot bo'lib, Movarounnahrdagi arlot amirlarining yetakchisi bo'lgan. Temuriylar davrida ham arlotlar Movarounnahr va Xuronda yetakchi siyosiy kuchlardan biri sifatida mamlakat etno-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etishadi. Abdurazzoq Samarqandiyning asarida arlotlar to'g'risida shunday deyiladi. Shohruh Mirzoning yirik amirlaridan biri Yodgorshoh arlot bo'lib, hukmdor vafotidan keyin boshqa Temuriy shahzodalar hizmatiga kiradi. Jumladan, Mirzo Alouddavla Maymana va Faryobga borganda arlotlar amiri Yodgorshoh arlot va Jaloliddin Sulton Mahmud arlot

yordamida hukmronlikni qo'lga oladi. Bu paytda Maymana va Faryob arlotlarga qarashli edi. Alouddavla Mirzo arlotlar bilan munosabatni yanada yaqinlashtirish maqsadida Yodgorshoh arlotning qiziga uylanadi va qarindoshlik aloqalarini bog'laydi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, bu nikohdan bir o'g'il farzand tug'ilgan bo'lib, unga Boysunqur Mirzo deb ism berishgan. Ammo, shahzoda tug'ma soqov bo'lgani manbada ta'kidlanadi.

Alouddavlaga yordam bergen arlot qabilasi vakillari Husayn Bayqaroga ham yordam beradi. Bupaytda arlot eliga Yodgorshoh arlotning farzandlaridan amir Pir Muhammad arlot, Ja'far arlot va Zaynulobidin arlotlar boshchilik qilayotgan edi. Abdurazzoq Samarqandiy ko'p marta tilga olgan etnoslardan yana biri arg'unlar bo'lib, manbada arg'un, arg'uniy shakllarida uchraydi. Masalan, Abu Said Mirzoning Nur Sa'id va amir Sulton Arg'uniy degan amirlari bo'lib, Mirzo Muhammad Jo'kiy tomoniga o'tib ketadi. Abu Said Mirzoni amir Sayid Asil Arg'uniy degan amiri ham bo'lib, hukmdor uni Xurosonga yuborganini yozadi Abdurazzoq Samarqandiy.

Xulosa o'rnilida aytganda, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrain" asari XV asr Movarounnahr va Xuroson tarixini yoritishda muhim tarixiy asar sifatida nafaqat ijtimoy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlardan tashqari etnik jarayonlar tarixi ham batafsil aks etgani bilan bu davrdagi boshqa manbalardan ajralib turadi. Manbani bu davr boshqa manbalari bilan qiyosiy taqqoslab o'rganish mazkur davr tarixiy jarayonlarini yanada chuqurroq o'rganishimizga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураззок Самарқандий. Матлаъ ус-саъдайн ва мажмаъ ул-баҳрайн./ Форс тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳли луғатлар муаллифи А. Ўринбоев. II/1. – Т.: Фан, 1969. – 463 б.; II/1. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 632 б.; II/2, 3. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 832 б.
2. Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: Чўлпон, 1992. – 189 б.
3. Бобур. Бобурнома. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 287 б.
4. Давлатшоҳ Самарқандий. // Амир Темур "Тазкират уш-шуаро"дан // Амир Темур ва Улуғбек

замондошлари хотирасида. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 8-15.

5. Мирхонд. “Равзат ус-сафодан” // Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 100-135.

6. Муҳаммад Солих. Шайбонийнома. – Т.: Фан, 1961. – 360 б.

7. Хондамир, Гиёсиддин ибн Хумомиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори башар (Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст) / Масъул мухаррир А. Аҳмедов; Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари: И. Бекжонов, Ж. Ҳазратқулов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.

8. Ҳофизи Абру. “География”дан (форс тилидан О.Бўриев таржимаси) // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. Тузувчилар: А.Ўринбоев, О.Бўриев. – Тошкент, 1997. – Б. 62-75.

9. Ҳофизи Абру “Зубдат ат-таворих”дан (форс тилидан О.Бўриев таржимаси) // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. Тузувчилар: А.Ўринбоев, О.Бўриев. – Тошкент, 1997. – Б. 81-83.

10. Ҳофизи Абру “Зубдат ат-таворих”дан (форс тилидан О.Бўриев таржимаси) // Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 298-310.

11. Фасиҳ ал-Хавофий. Мужмали Фасиҳий / Таржима, кириш, изоҳлар ва қўрсаткичлар Д.Ю. Юсупованини. – Т.: Фан, 2018. – 542 б.